



UZTELECOM

**“O‘ZBEKTELEKOM” Aksiyadorlik
kompaniyasining
2025 yil uchun
BIZNES-REJASI**

Toshkent 2024

1. “O‘ZBEKTELEKOM” AKNING 2025 YILDA KO‘ZLANGAN ASOSIY MAQSADI

“O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) ning 2025 yil biznes rejasida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoyishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 oktabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiy lashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096-son farmoyishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-son Farmoni asosida ishlab chiqildi.

Kompaniya oxirgi yillar davomida muntazam ravishda telekommunikatsiya uskunalari va aloqa magistral liniyalari asosiy qismini modernizatsiyalab, o‘z tarmog‘i texnologik imkoniyatlarini jiddiy mustahkamlab, ovozli va paketli kommutatsiya xalqaro bog‘lamalarini modernizatsiyalashtirish va imkoniyatlarini kengaytirish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Bularning barchasi, so‘zsiz Kompaniyaning respublikada kuchli infratuzilmali aloqa operatori mavqeini saqlab qolish va mustahkamlashga imkon bermoqda.

Kompaniyaning mazkur 2025 yil biznes rejasida ko‘zlangan maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1) telekommunikatsiya xizmatlari bozorining barcha segmentlarida yetakchi o‘rinlarga chiqish va mobil aloqa xizmatlari bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash, mijozlar (yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari va boshqalar)ning telekommunikatsiya xizmatlariga bo‘lgan talablarini to‘liq qondirish va Kompaniya raqobatbardoshligini oshirish;

2) ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish va barqarorligini ta‘minlash, yangi xizmat ko‘rsatish formatini joriy etish;



3) daromadlarning barqaror o'sishini ta'minlash va sof foyda miqdorini yanada oshirish;

4) aholining Internet va mobil xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish, Internet xizmatlari tezligini va sifatini oshirish, narxini kamaytirish, xalqaro internet trafigini mahalliyashtirish (lokalizatsiya) choralari ko'rish;

5) Respublikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida mahalliy operatorlar bilan samarali hamkorlikda ishlarni tashkil etish;

6) Kompaniya telekommunikatsiya tarmog'ini barqaror rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish maqsadida bir qator loyihalarni amalga oshirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Kompaniya o'z oldiga quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishini belgilab qo'ygan:

- telekommunikatsiya tarmoqlarini va liniya kabel xo'jaligini texnik me'yorga keltirish, telekommunikatsiya qurilmalarining uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha dizel generatorlar va muqobil elektr ta'minoti qurilmalarini o'rnatish;

- Kompaniyaning tarif siyosatida yangi iste'molchilarni jalb etish va telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanayotgan doimiy iste'molchilar bilan o'zaro manfaat asosidagi munosabatlarni mustahkamlash choralari amalga oshirilish va jozibador tarif siyosatini joriy etish;

- Kompaniya eksport salohiyatini oshirish yo'nalishi bo'yicha xorijiy operatorlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish, mavjud xalqaro o'tish nuqtalarining o'tkazuvchanlik quvvatini yanada oshirish va ularni zaxiralash orqali O'zbekiston Respublikasi orqali o'tadigan xalqaro tranzit kanallari soni va hajmini oshirish, kiruvchi xalqaro telefon trafigi hajmini saqlab qolish va ko'paytirish choralari ko'rish hamda ular uchun belgilangan hisob-taksalar miqdorini qayta ko'rib chiqish orqali daromadlarni ko'paytirish maqsad qilib olingan.

Kompaniyaning 2025 yil Biznes rejasida inobatga olingan vazifalardan kelib chiqib, asosiy ko'rsatkichlarning erishilishida Hukumat tomonidan belgilangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlashni ta'minlash muhim omil qilib olingan.



2. “O‘ZBEKTELEKOM” AK TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

2.1. “O‘zbektelekom” AK tashkil topishi

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 28 iyundagi “Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruvni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-2647-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 30 iyundagi “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 253-son qaroriga asosan “Mahalliy Telekom” va “Xalqaro Telekom” aksiyadorlik jamiyatlarining qo‘shilishi natijasida “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi tashkil topgan.

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasidagi yetakchi telekommunikatsiya operatori bo‘lib, o‘z tarmog‘i bilan butun respublika hududini qamrab oladi.

Kompaniya o‘zining zamonaviy telekommunikatsiya tarmog‘idan foydalangan holda Internetga keng polosali ulanish, statsionar va mobil aloqa operatorlari va provayderlari, uyali aloqa, shuningdek, IPTV, mahalliy telefon aloqasi va bir qator kanallarni ijaraga berish xizmatlarini taqdim etadi. U yuqori tezlikdagi Internetga ulanish, mobil aloqa, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash bo‘yicha O‘zbekiston bozorida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Kadrlar salohiyati ko‘lamini tasavvur qiladigan bo‘lsak, ayni paytda “O‘zbektelekom” AKda 17 mingdan ziyod xodim mehnat qilayotganini alohida ta’kidlash joiz. Ulardan 4255 nafari ayollar, 4202 nafari 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi.

Hozirda Kompaniyaning 8 ta filiali faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, 216 ta sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislari, shuningdek, 2780 dan ortiq dilerlik punktlari mavjud. Jumladan, 2021-yil davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, bir nechta viloyatlar, Toshkent va Nurafshon shaharlarida umumiy 42 ta modernizatsiyalashtirilgan zamonaviy Sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislari xalqimizga o‘z eshiklarini ochdi. Kompaniyaning 25 qavatli ofisi ham 2023-yil sentyabr oyida foydalanishga topshirildi. IT-park hududida joylashgan “O‘zbektelekom” AK bosh ofisi yangi HI-Tech uslubida bunyod qilingan bo‘lib, umumiy yer maydoni 0,47 gektarni tashkil qiladi. Bino hududida Kompaniya xodimlari va mehmonlar uchun mo‘ljallangan avtoturargoh ham mavjud.

Kompaniya texnologik taraqqiyotga an’anaviy tarzda alohida e’tibor qaratadi. O‘zbekistonda abonentlarga birinchi bo‘lib eng zamonaviy yechimlar va aloqa standartlarini taklif qiladi. Xususan, 2024 yilning so‘nggi 9 oy davomida xalqaro internet tarmoqlariga ulanish tezligini 3600 Gbit/s gacha oshirilgan bo‘lsa, joriy yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkich 4000 Gbit/s ga yetkazildi. Shu bilan birga, bazaviy stansiyalarning umumiy soni 25 000 tadan oshdi.

“Jizzax” Erkin iqtisodiy zonasida joylashgan Kompaniya hamkorligida tashkil etilgan “Global Optical Communication Uzbekistan” MChJ qo‘shma

korxonasi ham faoliyat yuritadi. Kompaniya ta'sischi ligida tashkil etilgan "Global Optical Communication Uzbekistan" MCHJ qo'shma korxonasi tomonidan optik tolali aloqa kabeli (FttH/drop kabel), Optik tolali magistral aloqa kabeli va optik tolali patch kord mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

UZTELECOM televideniya va kino tomosha qilish uchun TelecomTV platformasini taqdim etadi. "O'zbektelekom" AK hamkori Apple Inc bilan olib borilgan muvaffaqiyatli muzokaralar tufayli O'zbekistonda birinchi marta, iOS 16.4 versiyasiga yangilangan Apple qurilmalari foydalanuvchilari 5G ma'lumotlar uzatish tizimini ishga tushirdi.

2024 yilda Kompaniya innovatsiyalar, sifat va yuqori tezlik bo'yicha o'z o'rnini yana bir bor tasdiqladi. Kompaniya internet-tahlil bo'yicha xalqaro yetakchi Ookla® kompaniyasi tomonidan bir emas, ikkita nufuzli mukofot "Eng tezkor mobil tarmoq" va "Eng yaxshi mobil geyming tajribasi" oliy mukofoti bilan taqdirlandi.

CC-Global Awards Berlin 2024 e'tirofiga ko'ra "O'zbektelekom" AK "5G loyihasini ishga tushirish" nominatsiyasida xalqaro mukofotga sazovor bo'ldi. Ushbu g'alaba Kompaniya jamoasining salmoqli mehnati natijasidir. Ushbu katta loyiha doirasida Kompaniya 6000 dan ortiq tayanch stansiyalarni muvaffaqiyatli o'rnatdi va modernizatsiya qildi, bu esa aloqa sifatini hamda abonentlar uchun ko'plab qulayliklar yaratildi. 100 dan ortiq xalqaro aloqa operatorlari, shu jumladan T-Mobile va China Telecom kabi katta kompaniyalar ishtirok etgan tanlovda Uztelecom bir vaqtning o'zida uchta nominatsiya bo'yicha short-list ga kirdi va mukofotni qo'lga kiritdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23-25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi davomida "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi jahonda o'z o'rniga ega Xitoyning telekommunikatsiya jihozlarini ishlab chiqaruvchi ikki yirik – ZTE va Huawei kompaniyalari bilan hamkorlik kelishuvi imzoladi. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi kompaniyalari bilan 2025-2028 yillarda respublikamizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 588,2 mln. AQSh dollari bo'lgan 3 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Loyihalarning amalga oshirilish natijasida:

Aholining telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari va qamrovi yanada kengaytiriladi;

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshiriladi;

Xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet bilan to'liq qamrab olishga;

Respublika bo'ylab temir yo'llarida yuqori tezlikdagi mobil internet bilan to'liq qamrab olishga;

Toshkent shahrida va barcha viloyatlar markazlarida beshinchi avlod 5G standartidagi tayanch baza stansiyalari o'rnatishga;

Ma'lumotlarni uzatish va magistral transport tarmoqlarining o'tkazuvchanlik qobiliyati kengaytirishga erishiladi.

Respublika hududlarida “Jamoat xavfsizligi” hamda “Aqlli shahar” konsepsiyalarini tatbiq etishda “O‘zbektelekom” AKning mobil va simli ma’lumotlarni uzatish tarmoqlari rivojlantiradi.

Kompaniya Huawei bilan O‘zbekistonda Sun’iy intellekt va ilg‘or texnologiyalarni yanada rivojlantiradi.

Uztelecom mobil abonentlari istagida bo‘lgan abonentlar uchun my.gov.uz yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali onlayn ariza ishg‘a tushirildi. Kompaniya telekommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirib raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda o‘zining salmoqli hissasini qo‘shishda davom etadi.

2.2. Kompaniyaning rekvizitlari, ustav jamg‘armasi va tarkibiy tuzilmasi

Kompaniyaning to‘liq nomi: “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi;

Ta’sis etilgan yili: 2000 yil;

Litsenziyalar:

1. Mahalliy telekommunikatsiya tarmoqlarni loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularga xizmatlar ko‘rsatish, berilgan sana: 21.08.2015 yil, №AA 0005657;

2. Xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarni loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularga xizmatlar ko‘rsatish, berilgan sana: 21.08.2015 yil, №AA 0005659;

3. Ma’lumotlar uzatish tarmoqlari loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularga xizmatlar ko‘rsatish, berilgan sana: 15.03.2022 yil, №AA 0007407;

4. Mobil aloqa (uyali) tarmoqlarni loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularga xizmatlar ko‘rsatish, berilgan sana: 03.11.2015 yil, №AA 0005717;

5. Teleradioeshittirishlarni tarqatish (translyatsiya qilish) tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularga xizmatlar ko‘rsatish, berilgan sanasi: 25.02.2022 yil, №AA 0007400.

6. Uy-joy xo‘jalik qurilishi uchun obyektlar va komplekslar loyiha-smeta hujjatlarini yaratish, shu jumladan ularning muhandislik tarmoqlari va tizimlarini loyihalashtirish (berilgan vaqti 31.01.2017 yil №002166)

Tashkiliy – huquqiy shakli: Aksiyadorlik jamiyati;

Yuridik manzil:

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 97 “A”-uy

Joylashuv manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mo‘minov ko‘chasi, 4/2-u

tel: (+99871) 200-77-97,

faks: (+99871) 236-01-88,

E-mail: info@uztelecom.uz,

veb-sayt: www.uztelecom.uz;

Kompaniya ustav jamg‘armasi:

Kompaniya Ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar tomonidan sotib olingan Kompaniya aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

Kompaniya Ustav fondi 326 171 555 666 (uch yuz yigirma olti milliard bir yuz yetmish bir million besh yuz ellik besh ming olti yuz oltmish olti) so‘mni tashkil qiladi. Bunda:

davlat ulushi – 94,55 foiz yoki 308 392 417 738 (uch yuz sakkiz milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘rt yuz o‘n yetti ming yetti yuz o‘ttiz sakkiz) so‘m (267 237 797 dona aksiya);

yuridik va jismoniy shaxslar ulushi – 5,45 foiz yoki 17 779 137 928 (o‘n yetti milliard uch yuz sakson uch million olti yuz o‘n olti ming sakkiz yuz qirq to‘rt) so‘m (15 406 532 dona aksiya).

Kompaniya aksiyalarining nominal qiymati 1 154 (bir ming bir yuz ellik to‘rt) so‘m.

Kompaniya Ustav fondi 282 644 329 (ikki yuz sakson ikki million olti yuz qirq to‘rt ming uch yuz yigirma to‘qqiz) dona hujjatsiz aksiyalarga bo‘lingan, shundan 272 779 843 (ikki yuz yetmish ikki million yetti yuz yetmish to‘qqiz ming sakkiz yuz qirq uch) dona egasi yozilgan oddiy va 9 864 486 (to‘qqiz million sakkiz yuz oltmish to‘rt ming to‘rt yuz sakson olti) dona egasi yozilgan imtiyozli aksiyalarni tashkil qiladi.

2.3. “O‘zbektelekom”AKning asosiy faoliyati

Kompaniya o‘z tarmog‘i bilan respublikamizning barcha hududlarini qamrab olgan O‘zbekiston Respublikasida eng yirik telekommunikatsiya operatori.

Bugungi kunda Kompaniya yetakchi milliy operator ekanligini hisobga olib, butun respublika bo‘ylab sifatli va zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi. Kompaniyaning asosiy maqsadi mijozlarga butun O‘zbekiston bo‘ylab zamonaviy va sifatli telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishdir.



Kompaniya aholi, biznes, davlat idoralari, shuningdek O‘zbekistondagi operator va provayderlar uchun yetakchi raqamli operator bo‘lishga intilmoqda.

Xususan, “O‘zbektelekom” AK taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini doimiy yaxshilab borish, abonentlar sonini oshirish va ular uchun sifatli yuqori tezlikdagi internet xizmatini taqdim etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Kompaniyaning telekommunikatsiya tarmoqlari optik tolali aloqa liniyalari asosida modernizatsiya qilinib, qamrovi kengaytirib borilmoqda. Respublikamizning barcha hududlariga, shu jumladan, chekka va olis qishloqlarga ham optik tolali aloqa liniyalarini qurish ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib aholi maskanlarini optik tolali aloqa liniyalar bilan qamrab olish darajasi 95% dan oshdi. Yaratilayotgan infratuzilma simsiz texnologiyalarni, xususan, yuqori tezlikdagi mobil xizmatlarni ham jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kompaniya uchun an‘anaviy yo‘nalishlarda raqobatning kuchayishi hamda respublikada hozirgi davrda kuchli aloqa operatori mavqeini saqlab qolish va mustahkamlash sharoitlarida, yangi bozorlarni ochish va yangi turdagi servislarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda Kompaniyaning mahalliy telekommunikatsiya tarmog‘i to‘liq raqamlashtirilgan hisoblanadi. Kompaniya telekommunikatsiya tarmog‘ini raqamlashtirish ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yuqori bosqichlarga ko‘tarishga imkon berdi, mijozlarga yangi xizmat turlarini taqdim etishni ta‘minladi hamda foydalanuvchilar keng doirasiga Internet tarmog‘iga yuqori tezlikda ulanishni tashkil etishga imkon berdi.

2.4. “O‘zbektelekom” AKning xalqaro munosabatlari

“O‘zbektelekom” AK xalqaro aloqa operatorlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishlarga ega bo‘lib, xalqaro bozorda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim qilish bo‘yicha hamkorlikni amalga oshiradi.

Kompaniya xalqaro aloqa operatorlari bilan o‘zaro faoliyat yuritadi, xalqaro telekommunikatsiya loyihalarida ishtirok etadi, xorijiy operatorlar va telekommunikatsiya qurilmalarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi.

Qo‘shni Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Afg‘oniston telekommunikatsiya operatorlari bilan ulanish nuqtalariga ega. Ushbu ulanish nuqtalari orqali Qozog‘iston, Tojikiston, Afg‘oniston va Turkmaniston davlatlari yo‘nalishida Internet va tranzit kanallar ijarasi xizmatlari taqdim qilinmoqda.



Shu bilan birga mavjud xalqaro aloqa liniyalari o‘tkazuvchanligini kengaytirish va yangilarini tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Kompaniyaning Frankfurt-Mayn (Germaniya), Moskva (Rossiya) hamda Gonkong shaharlarida ulanish nuqtalari (PoP – Point of Presence) tashkil etilgan bo‘lib, mazkur nuqtalar orqali xalqaro aloqa kanallarni tashkil qilinmoqda.

Kompaniya O‘zbekiston Respublikasida operator va provayderlariga hamda o‘z abonentlariga kommutatsiya markazlari orqali xalqaro Internet va telefoniya xizmatlarini taqdim qilib kelmoqda.

Internet xizmati sifatini oshirish hamda import xarajatlarini optimallashtirish maqsadida, tashqi kanallardagi asosiy yuklamani tashkil etadigan 20 dan ortiq xorijiy yirik kompaniyalarning servislari Kompaniyaning Uz-IX piring markazida mahalliyashtirilgan. Shuningdek, xorijiy kompaniyalarga Kompaniyaning ma’lumotlar markaziga o‘z serverlarini joylashtirish xizmati taqdim qilinmoqda.

2024 yilda “O‘zbektelekom” AKning homiyligi ostida O‘zbekistonda ilk bor xalqaro telekommunikatsiya operatorlari kongressi (IWTC - International Wholesale Telecom Congress) o‘tkazildi. Mazkur tadbirda 43 davlatdan 106 kompaniyalardan 300 dan ortiq xorijiy ishtirokchilar ishtirok etdi.

2.5. “O‘zbektelekom” AK bo‘yicha 2024 yilning asosiy texnik va moliyaviy ko‘rsatkichlari

2024 yilda “O‘zbektelekom” AK ning telekommunikatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish doirasida amalga oshirilgan loyihalar natijasida tarmoq infratuzilmasi yanada kengaydi va yaxshilandi, jumladan:

- 45 944 km uzunlikda optik tolali aloqa liniyalari qurildi;
- iste’molchilarga yuqori tezlikdagi ma’lumotlar uzatish tarmog‘iga ulanish xizmatini taqdim etish maqsadida Xalqaro paketli kommutatsiya markazining quvvati 3 600 Gbit/s. ga yetkazildi;

- magistral transport tarmog'ining umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 70 Tbit/s dan oshirildi;
- keng polosali qurilmalar sig'imi 5,2 mln. portga yetkazilib, shundan xDSL – 744,8 ming, FTTx – 485,2 ming va GPON – 3 983,4 ming portni tashkil etmoqda;
- aholi yashash maskanlarini optik aloqa liniyalar bilan qamrab olish darajasi 96 foizdan va mobil aloqa tarmog'i bilan qamrab olish darajasi 92 foizdan oshirildi;
- ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazi quvvati 11,2 Pbayt ni tashkil etmoqda.

3.“O‘ZBEKTELEKOM”AKNING 2025-2028 YILLARDA RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA AMALGA OSHIRILADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARI

3.1. “O‘zbektelekom”AK tomonidan 2025-2028 yillarda telekommunikatsiya tarmoqlarini qayta qurish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari haqida ma’lumot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni va boshqa Hukumat qarorlariga muvofiq “O‘zbektelekom” AK tomonidan tarmoqqa yangi texnologiyalarni kiritish, yangi xizmat turlarini joriy etish va daromadlarni oshirish, shuningdek, magistral, mobil tarmog‘ini, zonaichi va mahalliy tarmoqlarni rivojlantirish, rekonstruksiya qilish va zaxiralash bo‘yicha bir qator ahamiyatli tadbirlar rejalashtirilgan.

Kompaniya tomonidan **2025-2028 yillarda** Investitsiya dasturlari doirasida **“Respublika hududlarida “Jamoat xavfsizligi” hamda “Aqlli shahar” konsepsiyalarini tatbiq etishda “O‘zbektelekom” AKning mobil va simli ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish”** loyihasini amalga oshirish belgilangan.

Ushbu loyihaning maqsadi **O‘zbekiston Respublikasi hududlarida “Jamoat xavfsizligi”, “Aqlli shahar” va boshqa axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish uchun “O‘zbektelekom” AKning mobil va simli telekommunikatsiya tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirishga yo‘naltirilgan.**

Loyihaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Respublika hududlarida “O‘zbektelekom” AKning mobil aloqa qamrov darajasini 3G/4G texnologiyasi bo‘yicha **95%** dan **98%** gacha, 5G texnologiyasi bo‘yicha – viloyat markazlarida **7%** dan **60%** gacha, Toshkent shahrida **94%** gacha kengaytirish;

2. Keng polosali kirish (Internet) portlari sonini **1 457 152** donaga ko‘paytirish;

3. Internet protokoli orqali simli telefon (IP telefoniya) foydalanuvchilari sonini **298 000** abonentga ko‘paytirish;

4. **"Xavfsiz shahar", "Aqlli shahar", "Xavfsiz turizm" va "Raqamli hukumat"** tizimlari elementlari uchun telekommunikatsiya infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish.

“Respublika hududlarida “Jamoat xavfsizligi” hamda “Aqlli shahar” konsepsiyalarini tatbiq etishda “O‘zbektelekom” AKning mobil va simli ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi 3 qismdan iborat.

I. “O‘zbektelekom” AKning mobil aloqa tarmog‘ini respublikaning sharqiy mintaqasida yanada rivojlantirish” komponenti doirasida umumiy qiymati 227,15 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni o‘zlashtirish rejalashtirilmoqda (“CNTIC” kompaniyasi ishtirokida). Natijada:

- **1 475 ta** mavjud obyektlarda **1 555 ta 3G/4G** texnologiyalari asosida mobil aloqa baza stansiyalarini modernizatsiya qilish;

- mavjud obyektlarda **536 ta 5G** texnologiyasi asosida baza stansiyalarni modernizatsiya qilish;

- **1 061 ta** yangi obyektlarda **2 973 ta 3G/4G** texnologiyalari hamda **80 ta 5G** texnologiyasi asosida baza stansiyalarini o‘rnatish;

- **61** komplekt **radiorele** uskunalari o‘rnatish;

- **42 ta** server uskunalari o‘rnatish orqali kommutatsiya tarmog‘ini kengaytirish;

- **Toshkent metropolitenining** 28 ta yer osti bekatlarini bog‘lovchi tunnellarda **4G** texnologiyasi asosida mobil aloqa qamrovini tashkil etish;

- **Qamchiq dovonida** joylashgan **19,2 km li** temir yo‘l tunnelida **4G** texnologiyalari asosida mobil aloqa qamrovini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi.

II. “O‘zbektelekom” AKning simli ma’lumotlarni uzatish tarmog‘ini respublikaning sharqiy mintaqasida yanada rivojlantirish” komponenti doirasida umumiy qiymati 148,0 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni o‘zlashtirish rejalashtirilmoqda (“CNTIC” kompaniyasi ishtirokida). Natijada:

- **57 ta** mavjud telekommunikatsiya transport tarmog‘i obyektlarida qurilmalarini modernizatsiya qilish va yangilash;

- telekommunikatsiya transport tarmog‘ida **12 ta** obyektidan iborat uchinchi zaxira liniyasini tashkil qilish;

- telekommunikatsiya transport tarmog‘i obyektlari uchun **5 to‘plam** elektr rostlagichi hamda **318 to‘plam** akkumulyator batareya qurilmalarini o‘rnatish;

- **79 ta** tuman markazlariga yangi **DWDM** qurilmalarini o'rnatib, qo'shimcha transport kanallari tashkil qilish imkoniyatini yaratish;
- "Toshkent shahar telefon tarmog'i"ning IP/MPLS tarmog'i transport kanallarini kengaytirish maqsadida **6 ta NE40X16A (yadro)** qurilmalariga qo'shimcha **100GE** platalar o'rnatish orqali o'tkazuvchanlik qobiliyatini **200 Gbit/s** dan **400 Gbit/s** gacha oshirish;
- mavjud **50 ta NE40X8A** marshrutizatorlarga **100 G** platalar o'rnatish orqali o'tkazuvchanlik qobiliyatini **40 Gbit/s** dan **100 Gbit/s** ga kengaytirish, shuningdek, mavjud **44 ta S12700E** kommutatorlarga qo'shimcha **48-portli 10 GE** platalar o'rnatish hisobiga portlar sonini yanada oshirish;
- Xalqaro paketli kommutatsiya markazi (**XPKM**) tugunining sig'imini **3,6 terabit/sek** dan **6 terabit/sek** gacha kengaytirish;
- ma'lumotlarni uzatish tarmog'ining xizmat ko'rsatish yadrosini **3 terabit/sek** dan **5 terabit/sek** gacha kengaytirish;
- ma'lumotlarni uzatish tarmog'ida faol abonent sig'imini **2,5 milliondan 4 milliongacha** kengaytirish;
- ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazi tizimini **17,7 petabaytga** kengaytirish;
- respublika bo'ylab telekommunikatsiya transport tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyatini **18 terabit/sek.ga** hamda xalqaro telekommunikatsiya transport kanallari o'tkazuvchanlik qobiliyatini **2 terabit/sek.ga** kengaytirish;
- keng polosali ulanish (Internet) tarmog'ini kengaytirish uchun **1 426 432 ta** abonent porti qurilmalarini o'rnatish;
- keng polosali kirish tarmog'ini kengaytirish uchun **12 ta FlexPON** platalarini o'rnatish;
- keng polosali ulanish uchun **852 370 ta WiFi 5** hamda **1 020 ta WiFi 6 ONT modemlarini** o'rnatish.

III. "O'zbektelekom" AKning keng polosali mobil va simli telekommunikatsiya infratuzilmasini respublikaning g'arbiy mintaqasida yanada rivojlantirish" komponenti doirasida 213,08 mln AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda ("ZTE" kompaniyasi ishtirokida). Natijada:

- **1 422 ta** mavjud obyektlarda **1 608 ta 3G/4G** texnologiyalari asosida mobil aloqa baza stansiyalarini modernizatsiya qilish;
- mavjud obyektlarda **261 ta 5G** texnologiyasi asosida baza stansiyalarni modernizatsiya qilish;

- **3 053 ta** yangi obyektlarda **8 270 ta 3G/4G** texnologiyalari hamda **200 ta 5G** texnologiyasi asosida baza stansiyalarini o'rnatish;
 - **520** komplekt **radiorele** uskunalarini o'rnatish;
 - **54 ta** server uskunalarini o'rnatish orqali kommutatsiya tarmog'i **yadrosini** kengaytirish;
 - **305 ta dizel generator** qurilmalarini o'rnatish;
 - keng polosali kirish tarmog'ini kengaytirish uchun **30 720 ta** abonent portiga teng qurilmalarni o'rnatish;
- Simsiz keng polosali ulanish (**144 840 ta WiFi 5** hamda **20 400 ta WiFi 6**) **ONT** modemlarini o'rnatish;
- **IMS** tarmog'ini kengaytirish ko'zlangan.

2028 yil yakunida “Respublika hududlarida “Jamoat xavfsizligi” hamda “Aqlli shahar” konsepsiyalarini tadbqiq etishda “O‘zbektelekom” AKning mobil va simli ma’lumotlarni uzatish infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi doirasida “O‘zbektelekom” AKning telekommunikatsiya infratuzilmasini respublikaning sharqiy va g‘arbiy mintaqalarida yanada rivojlantirish” komponentlari yakuni bo‘yicha erishiladigan natijalar:

Aholi maskanlarini keng polosali internet xizmatlari bilan ta'minlash va simli telefon bilan qamrab olish darajasi 98 foizga yetkaziladi;

Aholi maskanlarini mobil aloqa tarmog'i va keng polosali mobil internet bilan qamrab olish darajasi 97 foizga yetkaziladi;

Xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrov darajasi 95 foizga yetkaziladi;

Temir yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrov darajasi 97 foizga yetkaziladi;

Xalqaro paketli kommutatsiya markazining o'tkazuvchanlik qobiliyati 6 000 Gbit/sek.ga yetkaziladi;

Kompaniyaning umumiy telekommunikatsiya transport tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyati 20 Tbit/s.ga kengaytiriladi (DWDM).

“Jamoat xavfsizligi” va “Aqlli shahar” konsepsiyalarini joriy etish uchun telekommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash, shuningdek “O‘zbektelekom” AKning mobil va simli ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarini rivojlantiriladi.

Shuningdek, **Yaponiyaning JBIC** va **MUFG** banklari krediti hisobiga “O‘zbektelekom” AKning telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish (2- bosqich)” loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Mazkur investitsiya loyihalarning amalga oshirilishi natijasida quyidagi maqsadlarga erishiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 5 oktyabrdagi PF–6079-son va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023 yil 11 sentyabrdagi PF–158-son Farmonlarida sohamiz oldiga qo‘yilgan topshiriqlarning ijrosi ta’minlanadi;

barcha turdagi foydalanuvchilar uchun yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyati yaratiladi;

olis va qishloq joylarida yuqori tezlikdagi mobil aloqa qamrovi kengaytiriladi;

raqamli rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish hajmi ortadi hamda sifati yaxshilanadi;

“Xavfsiz shahar”, “Aqlli shahar”, “Xavfsiz turizm” va “Elektron hukumat” tizimlari elementlari uchun telekommunikatsiya infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish;

O‘zbekiston Respublikasining soha bo‘yicha xalqaro indekslardagi ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga erishiladi.

3.2. Kutilayotgan xavf-xatarlar (risk) va ularni oldini olish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar turli noaniqliklar va xavf-xatarlarga duch kelgani kabi, telekommunikatsiya xizmatlari bozorida ham qator xavf-xatarlar mavjud bo‘lib, ularni oldini olish va korxonalar faoliyatiga ularning ta’sirini imkon qadar kamaytirish choralari ko‘rish dolzarb hisoblanadi.

Telekommunikatsiya korxonalari faoliyatiga siyosiy vaziyat, iqtisodiy ahvol, qonunchilik asosi, xalqning ijtimoiy-madaniy saviyasi, tarmoqlarning ilmiy-texnik darajasi, tabiiy, iqtisodiy sharoit va bozorning o‘ziga mos tarkibi, ya’ni konyukturasi ta’sir ko‘rsatadi.

Kompaniya faoliyatiga uzluksiz xo‘jalik xavf-xatarlarning quyidagi turlari bevosita ta’sir qiladi:

- ishlab chiqarish (ob-havo, texnik, texnologik, taqsimlash, tashkiliy, kutilmagandagi o‘lim xavfi, boshqaruv va boshqalar);
- dallolchilik (daromadni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘qotish xavfi, bevosita pulni yo‘qotish va mulkiy zarar ko‘rish xavfi, fuqarolik javobgarligining paydo bo‘lish xavfi va boshqalar);
- tijorat (mahsulot yezkazib berolmaslik xavfi, mahsulotni sota olmaslik xavfi, yo‘qotish xavfi va boshqalar);

- moliyaviy (kredit, mulkiy, sug'urta, valyutaviy, depozit, narxga bog'liq bo'lgan noliqvidlilik, iqtisodiy, tavakkalchilik ustamasi va boshqalar);

- innovatsion (ijtimoiy, ilmiy texnika taraqqiyoti natijalarini joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik).

“O‘zbektelekom” AK tomonidan barcha yuzaga keladigan xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida 2 ta yo‘nalishda tegishli ishlar olib boriladi:

1. Tavakkalchilik faoliyatida mavjud xavf-xatarlarni va uning natijasida ehtimolli yo‘qotishlarni oldini olish uchun sug‘urtalash mexanizmidan foydalaniladi. Ushbu maqsadlar (bino-inshootlar, avtomototransport vositalari, xodimlar sug‘urtasi va boshqalar) uchun 2025 yilda 3,26 mlrd. so‘m miqdoridagi mablag‘ sarflanishi rejalashtirilgan.

2. Sug‘urta qilishni talab etmaydigan xavf-xatarlar borasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

- tijorat faoliyatiga doir xavf-xatarlar bo‘yicha moliyaviy faoliyat ko‘rsatkichlari nisbatini to‘g‘ri aniqlash va saqlab borish, investitsiyalarning rentabelligini oshiradigan usullarni izlab topish;

- resurslarni noo‘rin taqsimlash xavf-xatari bo‘yicha ko‘rsatiladigan telekommunikatsiya xizmatlari hajmidan kelib chiqqan holda resurslarni taqsimlashda ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olish;

- iqtisodiy beqarorlik va talabning o‘zgarishi xavf-xatari bo‘yicha doimiy ravishda tahlil ishlarini olib borish va bozor konyukturasidan kelib chiqqan holda tasdiqlangan rejalarga o‘zgartirishlar kiritib borish;

- moliyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha mablag‘larni mohirlik bilan ishlatib borish, passiv mablag‘larni foyda keltiradigan loyihalarga joylash yoki banklarga depozitga qo‘yish.

Haqiqatan ham, O‘zbekistonning IT sohasida risk-menedjmenti boshqa mamlakatlardagi kabi muhim rol o‘ynaydi. Buning sababi, raqamli texnologiyalar va ularga bo‘lgan holatlar har kuni o‘sib borayotgani va iqtisodiyotning turli sohalari ularga qat’iy bog‘liq bo‘lib borayotganidir. Shu sababli, risklarni boshqarish har qachongidan ham muhimroq bo‘lmoqda.

Kompaniya — O‘zbekistonning eng yirik telekommunikatsiya operatori sifatida, IT sohasiga xos bo‘lgan va alohida tarmoqlarga xos risklar bilan duch keladi. Bu risklarni samarali boshqarish, kompaniyaning barqaror ishlashi, yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishi va xalqaro standartlarga moslikni ta’minlash uchun juda muhim.

O‘zbekistonda IT sohasidagi asosiy risklar:

Texnologik risklar: qurilmalar va dasturiy ta’minotning eskirishini, tizimlardagi nosozliklarni o‘z ichiga oladi.

Kiberxavflar: xakerlik hujumlari, viruslar va turli kibertahdidlar.

Iqtisodiy risklar: valyuta kurslari o'zgarishi, inflyatsiya, soliq qonunchiligining o'zgarishi.

Qonunchilikdagi o'zgarishlar: IT sohasini tartibga soluvchi qonunlarning o'zgarishi biznesdagi noaniqlikka olib kelishi mumkin.

Obro'ga oid (reputatsion) risklar: maxfiy ma'lumotlarning sizib chiqishi, mijozlarning salbiy sharhlari.

O'zbekistonda IT sohasidagi risk-menedjmentga xos xususiyatlar:

Rivojlanishning yuqori potentsiali: tez rivojlanib borayotgan IT sohasi yangi imkoniyatlarni yaratadi, ammo bir vaqtning o'zida yangi risklarni ham keltirib chiqaradi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: davlat IT sohasini rivojlantirishga faol yordam beradi, bu esa biznes uchun qulay sharoitlar yaratadi.

"O'zbektelekom" AK dagi risk-menedjmentning o'ziga xos jihatlari:

Infrastrukturaning kattaligi: butun mamlakatni qamrab oluvchi katta infratuzilmani boshqarish zarurati.

Jamiyat uchun yuqori ijtimoiy ahamiyat: Kompaniya ahamiyatli xizmatlarni ko'rsatadi, bu esa jamiyat va iqtisodiyotning ishlab chiqarish tizimiga bevosita ta'sir qiladi.

Davlat tomonidan tartibga solish: Kompaniya faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi, bu esa ko'plab normativ talablarga rioya qilishni talab qiladi.

Ushbu risklar va ularni samarali boshqarish O'zbekistondagi IT sohasining kelajagi uchun asosiy omillardan biridir.

Kompaniyada risklarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar:

Risk-menedjment tizimi:

2025 yilda kompaniyada samarali risk-menedjment tizimini ishlab chiqish va joriy etish rejalashtirilmoqda. Ushbu tizim risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirishni o'z ichiga oladi.

Risk-menedjment tizimining asosiy maqsadlari:

Strategik maqsadlar: Kompaniyaning strategik rejalarini amalga oshirishga qaratilgan maqsadlar. Bu, o'z navbatida, kompaniyaning rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va ularga erishishni ta'minlashga yordam beradi.

Operativ maqsadlar: Tashkilot faoliyatining samaradorligi va aktivlarning xavfsizligini ta'minlash. Bu maqsadning asosiy e'tibori – xarajatlarning optimizatsiyasi va resurslarning samarali taqsimlanishini nazorat qilish.

Qonunchilik talablariga muvofiqlik maqsadlari: Barcha faoliyatlar qonunchilikka to'liq muvofiq bo'lishi uchun talablarning qondirilishi. Bu maqsad joriy qonun va me'yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Moliyaviy va boshqa hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash: Kompaniyaning moliyaviy va boshqa hisobotlarining to'g'ri va ishonchli bo'lishini ta'minlash. Bu maqsad buxgalteriya va moliya hisobotlarining xolisligi va to'g'riligini nazarda tutadi.

Quyidagi chora-tadbirlar kompaniyaning barqarorligini ta'minlash va raqobatga salbiy ta'sir qiluvchi risklarni minimallashtirishga yo'naltirilgan:

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmini kengaytirish: Kompaniya yangi bozorlarga chiqish va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini oshirishni rejalashtirmoqda. Bu maqsad kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Sug'urtalash: Asosiy risklarni, shu jumladan mulk, javobgarlik va boshqa xavflarni sug'urtalash. Bu, o'z navbatida, kompaniyaning aktivlarini va moliyaviy barqarorligini saqlashga yordam beradi.

Risk-menedjmentning samarali tizimi kompaniyaning ishlashini xavfsiz va ishonchli qilishga xizmat qiladi.

Tavakkalchilik faoliyatida mavjud xavf-xatarlarni va uning natijasida ehtimolli yo'qotishlarni oldini olish uchun sug'urtalash mexanizmidan foydalaniladi.

Kompaniyada risklarni oldini olish va ularni boshqarish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar:

Hamkorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash:

Kompaniya o'zining asosiy ta'minotchilaridan — jihozlar, dasturiy ta'minot va xizmatlar yetkazib beruvchilaridan hamkorlikni mustahkamlashni maqsad qilmoqda. Bu hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish kompaniyaning uzluksiz faoliyatini ta'minlash va sifatli xizmatlarni ko'rsatishga yordam beradi.

Xodimlarni doimiy o'qitish:

Kompaniya risklarni boshqarish, axborot xavfsizligi, loyiha boshqaruvi, moliyaviy tahlil va boshqa muhim sohalarida xodimlarining malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratadi. Bu orqali kompaniya xodimlari o'z bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtiradi, bu esa korxonaning umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

"Xavflarni boshqarish" qo'mitasini tashkil etish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyuldagi "Byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-100-son Farmoniga asosan, "O'zbektelekom" AKda 2024 yil 27-noyabrda 375-son buyruq bilan "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi tuzildi. Bu qadam kompaniyaning risklarni aniqlash, baholash va ularni samarali boshqarishga qaratilgan choralarning yanada mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy risk-menedjment usullarini joriy qilish: "O'zbektelekom" AK zamonaviy usullar va texnologiyalar orqali risk-menedjment tizimini mustahkamlamoqda. Bu esa kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va infratuzilmasini yanada mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu chora-tadbirlar kompaniyaning uzluksiz va samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, axborot xavfsizligini, moliyaviy barqarorligini va umumiy ishlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Risk-menedjmentning samarali tizimi orqali "O'zbektelekom" AK o'z faoliyatini mustahkamlash va rivojlantirishni maqsad qilmoqda.

4. TELEKOMMUNIKATSIYA BOZORINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARINI BAHOLASH

4.1. Telekommunikatsiya bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va trendlar

Bugungi kunda Respublikadagi telekommunikatsiya bozori o'zining ijobiy va salbiy tomonlari bilan yuzaga keldi, bozor ehtiyojlari aniqlandi, telekommunikatsiya xizmatlari foydalanuvchilarining iste'mol hajmi shakllandi. Xususan, bozorga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

Mamlakatdagi internet iste'moli kun sayin ortib bormoqda va foydalanuvchilar tomonidan borgan sari ko'p trafik sarflanmoqda. Foydalanuvchilar tomonidan trafik iste'molining kun sayin ortib borayotganini hisobga olib, tashqi kanalni kengaytirish zaruriyati muhim masala bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari xalqaro qo'ng'iroqlar foydalanuvchilari qo'ng'iroqlarni amalga oshirish uchun chet ishlab chiqaruvchilarining mobil dasturlaridan foydalanmoqdalar, bu esa Internet kanali yuklanishining ortishi va an'anaviy telefoniya trafigining pasayishi orqali xalqaro qo'ng'iroqlardan daromadning kamayishiga olib kelmoqda.

4.2. Rejalashtirilgan ko'rsatkichlar va ularga erishish shartlari

Biznes-rejada 2025 yil davomida Kompaniyaning to'g'ridan-to'g'ri tijorat faoliyati orqali daromadlarni yanada oshirish choralari ko'rish rejalashtirilgan. Xususan,

1. 2025 yilda Internet abonentlari soni 2,7 mln.taga, mobil aloqa abonentlari sonini 10,2 mln.

2. Hozirgi kunda Internet abonentlari soni 2,3 mln., mobil aloqa abonentlari soni 9,0 mln. ni tashkil etadi.

4.3. Rejalashtirilgan tadbirlar

So'nggi yillarda Kompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan reklama tadbirlari Kompaniyaning brendlari imidjini oshirish, yangi xizmat turlari va tarif rejalarni keng ommaga yetkazishga yo'naltirilgan edi.

2020 yildan boshlab Respublika telekommunikatsiya xizmatlari bozorida Kompaniyamiz barcha spektrdagi telekommunikatsiya xizmatlarini yagona savdo belgisi UZTELECOM™ ostida ko'rsatib kelinmoqda.

Kompaniya xizmatlarining B2B/B2G bozorlariga kirib borishi, shuningdek bu bozorlarning katta salohiyatga ega ekanligini hisobga olib, ushbu yo'nalishlarda faoliyatni kuchaytirish rejalashtirilgan. Jumladan:

1. B2B/B2G sotuvlarida menedjerlar ishtirokini oshirish, ularni jalb qilish maqsadida sifatli va yuqori daromad keltirishga qaratilgan maxsus rag‘batlantirish dasturini yaratish;

2. Texnik tadqiqotlar va ulanishlar bo‘yicha jarayonlarni optimallashtirish masalalari doirasida Kompaniyaning ichki tartib-qoidalarini ko‘rib chiqish. Jumladan, qisqa muddatlarda “oxirgi mil”ni tashkillashtirish bo‘yicha prognoz va keyslarni maksimal samarali hisoblashga, qattiy “keys” yondashuvidan kelib chiqib abonentlarni ulashni va ularga texnik xizmat ko‘rsatish muddatlarini qisqartirishga qaratilgan tartib va reglamentlarni ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasini amalga oshirish, B2B/B2G segmentini 90% qamrab olish imkonini beradi.

B2C bozori uchun mavjud sotuv kanallarini ko‘rib chiqish ko‘zda tutilgan, shu qatorda jahon tajribasidan kelib chiqib tashqi sotuv kanallarini yaratish, xususan quyidagilar rejalashtirilgan:

1. B2C bozorida ishtirokchilar orasida raqobatning yuqoriligini hisobga olib, raqobatbardosh tarif rejalari va takliflarni ishlab chiqish, shuningdek abonentlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish.

2. Tijoratda menedjerlar ishtirokini oshirish, ularni jalb qilish maqsadida sifatli va yuqori daromad keltirishga qaratilgan maxsus rag‘batlantirish dasturini yaratish.

Shuningdek, ayni vaqtda bozorda Kompaniyaning telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi operator sifatida abonentlarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirish, xususan:

1. Abonentlarning xizmat ko‘rsatish sifatidan qoniqqanligini aniqlash maqsadida bozor tadqiqotlarini o‘tkazish, Kompaniyaning zaif tomonlarini aniqlash, Kompaniyaning telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatuvchi operator sifatida iste‘molchilarga tavsiya etish va xizmat ko‘rsatishga tayyor ekanligini aniqlash.

2. Tadqiqotlar natijasida olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish, xizmat sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, Kompaniyaning zaif tomonlarini optimallashtirish va kuchli tomonlarini qadriyat sifatida shakllantirish.

3. Tasdiqlangan rejaga muvofiq ishlarni amalga oshirish va post-tahlil o‘tkazish.

Tijorat uchun keng ko‘lamli maqsadlarni hisobga olgan holda, byudjet ko‘rsatkichlarining joriy hisobotini va monitoringini qayta ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi, shu o‘rinda hisobot davrida boshqarishning moslashuvchan qobiliyati ma‘lum bir ko‘rsatkichga yo‘naltirilgan rejalarni sifatli bajarishga qaratilgan rag‘batlantirish tizimini yaratish talab etiladi.

4.4. Mahalliy operatorlar bilan munosabatlar

Kompaniya respublikada telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi mobil aloqa operatorlari va internet provayderlarga shartnomalar asosida xizmat

ko'rsatmoqda. Ularga internet tarmog'iga ulanish, tarmoqlararo ulanish (interkonnekt), transport tarmoqlarini ijaraga berish, Uz-IX va Tas-ix tarmoqlariga ulanish hamda boshqa turdagi telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etmoqda. Jumladan, 2024 yilda Xalqaro paketli kommutatsiya markazi (XPKM) ga ulangan operator va provayderlarga ajratilgan tezlik 2 829 400 Mbit/s dan 3 227 200 Mbit/s ga yetkazilib, 397 800 Mbit/s ga oshirildi.

2025 yilda esa 3 227 200 Mbit/s dan 3 988 271 Mbit/s yetkazish rejalashtirilgan.

5. KOMPANIYANI TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOG'INING TEXNIK EKSPLOATATSIYASI VA MODDIY RESURLARI

5.1. 2025- yilda Kompaniya telekommunikatsiya tarmoqlarini me'yorda saqlash uchun moddiy resurslar bazasi

“O‘zbektelekom” AK o‘z daromadlarini, ishlab chiqarish samaradorligi hamda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati va hajmini yanada oshirish maqsadida telekommunikatsiya tarmoqlarida liniya kabel xo‘jaligini texnik me‘yorga keltirish, telekommunikatsiya qurilmalarini uzluksiz va barqaror ishlashini ta‘minlash bo‘yicha, qurilmalarga texnik servis xizmatlarini ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, dizel-generator, akkumulyator batareyalari va muqobil elektr energiya manbalarini o‘rnatib ishga tushirish hamda aholi maskanlarini yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrab olish darajasini yanada oshirish ishlari rejaga asosan amalga oshirilishi belgilangan.

Ushbu maqsadda qator chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va zaruriy qurilma va materiallar xarid qilinishi belgilangan (1-jadval).

Shu jumladan, 2025 yil davomida quyidagi yo‘nalishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirildi:

- liniya-kabel xo‘jaliklarini joriy ta‘mirlash va profilaktika qilish bo‘yicha aniq va manzilli chora-tadbirlarni belgilash;
- ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada oshirish, tarmoqni rivojlantirish hamda liniya kabel xo‘jaliklarni texnik me‘yorlarga keltirish va ta‘mirlash uchun zarur bo‘lgan telefon lyuklar (qopqoqlar bilan), aloqa ustunlari, kabel va sim mahsulotlarini xarid qilish;
- telekommunikatsiya tarmog‘ining aloqa liniyalariga texnik xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarni zaruriy o‘lchov va montaj uskunolari bilan ta‘minlash maqsadida ish qurollari, reflektometr, optik payvandlash uskunasi, testerlar;
- telekommunikatsiya qurilmalarining uzluksiz va barqaror ishlashini ta‘minlash maqsadida muqobil elektr energiya manbalarini o‘rnatib ishga tushirish, DGA va akkumulyator batareyalari hamda klimatexnika uskunolari, kuchlanish kabellari va TPlar;
- telekommunkatsiya tarmog‘ida ekspluatatsiya bilan bog‘liq masalalarni hal etib borish hamda davlat ahamiyatiga ega turli tadbirni yuqori saviyada

o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, zaruriy telekommunikatsiya qurilmalari va mahsulotlari xarid qilinishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Kompaniya telekommunikatsiya tarmog'ida ekspluatatsiya qilinayotgan qurilmalarning uzluksiz va sifatli ishlashini ta'minlash maqsadida qurilmalarga texnik servis xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzish uchun mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan.

2025 yilda amalga oshiriladigan ishlar va xarid qilinadigan materiallar

1-jadval

Qurilma va materiallar	O'lchov birligi	Jami 2025
<i>Liniya-kabel xo'jalikni texnik me'yorlarga keltirish, joriy ta'mirlash va profilaktika qilish ishlari</i>		
OTJ	Dona	1 900
FTTx javonlar	Dona	8 700
Splitter	Dona	50 000
TJ	Dona	2 700
YaKG/KRT	Dona	30 000
Optik abonent kirish simlari	Km	6 000
Abonent kirish simlari	Km	3 000
Havo aloqa liniyalari	Km	3 800
Telefon quduqlar	Dona	10 000
Aloqa ustunlari	Dona	20 000
<i>Ko'rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada oshirish, tarmoqni rivojlantirish uchun zaruriy materiallar</i>		
UTP/FTP	Km	2 500
har xil turdagi telefon simlari	Km	210
Telefon lyuklar (qopqoqlar bilan, yengil)	Dona	3 000
Telefon lyuklar (qopqoqlar bilan, og'ir)	Dona	2 000
Aloqa ustunlari	Dona	1 000
Xar xil turdagi muftalar	Dona	2 000
<i>Aloqa liniyalariga texnik xizmat ko'rsatayotgan xodimlarni zaruriy o'lchov, montaj va texnik vositalari bilan ta'minlash</i>		
Ish qurollari	Dona	600
Reflektometr	Dona	300
Power metr	Dona	300
Optik payvandlovchi uskuna	Dona	600
Optik payvandlovchi uskuna elektrodi	Dona	2 000
Tester	Dona	600
Izmeritel zazemleniya	Dona	500

Kabeleiskatel	Dona	200
---------------	------	-----

6. “O‘ZBEKTELEKOM” AK MEHNAT RESURSLARI

6.1. Kompaniyada mehnat resurslariga ehtiyoj va ularning mavjudligi

2025-yilda Kompaniya bo‘yicha o‘rtacha xodimlar soni 12 691 tani tashkil etishi rejalashtirilmoqda.

Yangi texnologiyalar bilan ishlovchi malakali mutaxassislarni jalb etish va ishlovchi xodimlarni saqlab qolish, xodimlar turmush darajasini muntazam oshirish maqsadida, 2025-yilda o‘rtacha oylik ish haqi 10 331,89 ming so‘mga yetkazilishi kutilmoqda, bunda o‘sish sur‘ati 2024-yilga nisbatan 7 foizni tashkil etadi.

6.2. Kadrlarga qo‘yiladigan talablar, ularni o‘qitish zaruriyati va o‘qitishni tashkil etish

“O‘zbektelekom” AK faoliyatini yanada rivojlantirish, uning istiqbolini belgilashda malakali kadrlar bilan ta‘minlash hamda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida, respublikamiz va horijdagi jahonning eng ilg‘or fan va texnologiyalari yutuqlarini va zamonaviy texnologiyalarini joriy qilgan yetakchi oliy ta‘lim muassasalari hamda malaka oshirish markazlari bilan muntazam ravishda hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan tadbirlarni davom ettirish maqsadida, 2025 yilda kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun 4 619 993 ming.so‘mda mablag‘lar sarflanishi rejalashtirilmoqda:

Shu jumladan, 2025 yilda 9249 nafar kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, ulardan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida - 2 nafar;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida - 16 nafar;
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida - 2 nafar;
- xorijiy o‘quv muassasalarida - 11 nafar kadrlarni maqsadli tayyorlash;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Favqulotda vaziyatlar vazirligi qoshidagi Fuqaro muhofazasi instituti, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi, BePro - dasturchilar o‘quv markazi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi yuristlar malakasini oshirish o‘quv markazi, O‘zbekiston Respublikasi Alpinistlar Federatsiyasi, O‘zbekiston buxgalter va auditorlarning o‘quv kursi (“ACCA DipIFR”), Respublika shoshilinch tibbiy yordam o‘quv markazi hamda xorijiy va

respublikamizdagi boshqa malaka oshirish o'quv markazlarining qisqa muddatli o'quv kurslarida xodimlar malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, ijroiya apparati, hamda Kompaniya tarkibidagi filiallarda maxsus o'quv dasturlar, turli seminarlar, konferensiyalar, chet tilini o'rganish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari, texnik o'quv mashg'ulotlar o'tkazilishi hamda rahbar kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlarning amaliy tajribasini va malakasini oshirish belgilangan.

7. MOLIYAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

7.1. Kompaniyaning asosiy faoliyatidan olingan daromadlari

Kompaniya bo'yicha 2025 yilda **asosiy faoliyatidan 11 169,6 mlrd. so'm**, miqdorida daromad olinishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2025 yil 2024 yilga nisbatan 13 foizga ko'pdir.

ILOVA

“O‘zbektelekom” AK moliyaviy natijalari (mln so‘m)

<i>No</i>	Xarajatlar nomi	2024 yil kutlayotgan	2025 yil uchun reja	O‘shish sur‘ati, %
10	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	8 906 017	10 374 060	116%
20	Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	6 298 381	7 298 314	116%
30	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	2 607 636	3 075 746	118%
40	Davr xarajatlari, jami	1 978 624	2 263 652	114%
50	Sotish xarajatlari	688 955	746 818	108%
60	Ma‘muriy xarajatlar	555 195	696 994	126%
70	Boshqa operatsion xarajatlar	734 474	819 840	112%
90	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	89 265	68 800	77%
100	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	718 277	880 894	123%
110	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami	859 963	726 994	85%
120	Dividendlar shaklidagi daromadlar	182 504	0	0%
130	Foizlar shaklidagi daromadlar	14 265	18 000	126%
150	Valyuta kursi farqidan daromadlar	663 193	708 194	107%
160	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	0	800	0
170	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	1 530 365	1 499 228	98%
180	Foizlar shaklidagi xarajatlar	481 436	626 296	130%
190	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	1 207	294	24%
200	Valyuta kursi farqidan zararlar	998 968	822 637	82%
210	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	48 753	50 000	103%
220	Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari)	47 875	108 660	227%
240	Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)	47 875	108 660	227%
250	Daromad (foyda) solig‘i	13 824	31 511	228%
260	Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar	0	0	0
270	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	34 051	77 149	227%